

# **Nyu-York yanada yaqinlashmoqda: parvozlar sonini ko'paytirmoqdamiz!**

**2026 31 Mart**

Bahoriy Markaziy parkda sayr qilishni, Tayms-skverning mashhur chiroqlarini ko'rishni orzu qilyapsizmi yoki okean ortiga muhim xizmat safarini rejalashtiryapsizmi? Biz sizning AQShga sayohatlaringizni yanada qulay qilmoqdamiz.

Shuni mamnuniyat bilan ma'lum qilamizki, aprel oyidan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent - Nyu-York - Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam aviaqatnovlar sonini ko'paytirmoqda. Ko'proq parvozlar - mukammal jadvalingizni rejalashtirishda ko'proq erkinlik va moslashuvchanlik demakdir!

Aviachiptalar allaqachon sotuvda! Qulay sayohatlar Uzbekistan Airways bilan boshlanadi!